

Termiz shahrida topshiriqlar ijrosi o'rganildi



Xususan, “Yulduz” va “O‘zbekiston” mahallasi hamda markaziy ko‘chalarda bunyodkorlik ishlari, yo‘llar bo‘ylab tungi yoritish chiroqlari, jumladan, milliy ramzlar bezaklari tushirilgan illyuminatsiya chiroqlarini o‘rnatish ishlari ko‘zdan kechirildi.

Bunyodkorlik ishlarini belgilangan normalar asosida olib borish va sifatli amalga oshirish, shahar aholisi va mehmonlari uchun zarur qulayliklar yaratish, markaziy ko‘chalar bo‘ylab illyuminatsiya chiroqlari o‘rnatish ishlarini qisqa muddatlarda yakunlash topshirig‘i berildi.